

“SHAJARAYI TURK” ASARINING O‘RGANILISH TARIXI

Kamola Shavkat qizi Abduvaliyeva

Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti
universiteti tayanch doktoranti

ANNOTATSIYA

Maqolada Abulg‘ozi Bahodirxonning “Shajarayi turk” asari tarixi, tili, uslubi, leksikasi ustida ish olib borgan bir qancha sharq tarixchi va olimlari bilan bir qatorda rus va boshqa chet el olimlarining ilmiy izlanishlari haqida bayon etilgan. Maqolada olimlarning asar haqidagi qimmatli fikrlari va ilmiy yangiliklari keltirilgan. “Shajarayi turk” asarining o‘rganilishi haqidagi ma’lumotlar Munis, Ogahiy, Bayoniy, S.P. Tolstov, Y.G‘. G‘ulomov, P.P. Ivanov, A.K. Borovkov, B.V. Lunin, M.I. Yo‘ldoshev, B.V. Bartold, B.A. Ahmedov kabi olimlarning asarlaridan keltirilgan fikrlar orqali asoslangan. Bundan tashqari asarning turli tillarga tarjima qilinganligi va nashr etilganligi haqida ham qimmatli ma’lumotlar keltirilgan.

Kalit so‘zlar: Abulg‘ozi Bahodirxon, Shajarayi turk, Shajarayi tarokima, etnonim, antroponim, qo‘ng‘irot, mo‘g‘ul, nukuz, o‘g‘uz toponim.

Kirish

Ma’lumki, sho‘ro davrida xalqimiz, millatimiz tarixiga salbiy qarash bilan yondashish hukmron edi. Shu sababdan ham xalqimiz tarixiga oid asarlar, xususan, turkiy tildagi tarixiy asarlarga e’tibor juda kam edi. Shu yo‘nalishdagi asarlarning ko‘pchiligi amaliyotga tatbiq etilmagan edi. Vaholanki, turkiy tildagi tarixiy asarlardan bo‘lmish “Shajarayi turk”¹, “Shajarayi tarokima”² kabi asarlarni o‘rganish, o‘qish va anglash biz uchun ulkan ahamiyatga egadir.

Abulg‘ozixonning yirik asaridan biri “Shajarayi turk” nomli asaridir. Mazkur asarning asosiy qismi 1663–1664-yillarda yozilgan. Asar Xorazm tarixining XVI–XVII asrning ikkinchi yarmidagi ijtimoiy siyosiy tarixini bayon etishda nodir manbadir. Abulg‘ozi kelgusi avlodlarga tuhfa qilib qoldirajak asarini yaratishga kirishar ekan, uydirma va soxtaliklarga yo‘l qo‘ymaslikka, tarixdan chetga chiqmaslikka harakat qiladi. Abulg‘ozi Bahodirxon mazkur asarni bitishda forsiy va turkiy tillarda yozilgan o‘n sakkizta manbaga tayanadi. Bu haqda uning o‘zi shunday deydi: “Eron birlan Turonda o‘tgan Chingizxon o‘g‘illarining otlarini aytilgan

¹ Абулғозий. Шажараи турк. – Т.: Чўлпон, 1992. – 190 б.

² Абулғозий. Шажараи тарокима. – Т., 1995.

tarixlardan ushbu zamon faqirning oldinda o‘n sakkiz mujollik hozir turar”³. Abulg‘ozi o‘z ona tilini yaxshi bilganidek fors-tojik, shuningdek mo‘g‘ul tillarini ham puxta egallagan edi. U o‘z asarlarini ona tilida yozgan. Abulg‘ozi Bahodirxon: “Bu tarixni yaxshi va yomon barchalari bilsin deb, turk tili bilan aytdim. Bir kalima chig‘atoy turkiydan, forsiydan va arabiydan qo‘shmayman, ravshan bo‘lsin deb, turkiyni ham andoq aytibmanki, besh yashar o‘g‘lon tushunur”⁴, deb yozadi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili

Ilmiy ish tahlil jarayonida bir qancha adabiyotlarga murojaat qilindi. Jumladan, Abulg‘ozi Bahodirxonning “Shajarayi turk”, Rashiddinning “Jome at-tavorix”, Munis va Ogahiyning “Firdavs ul-iqbol”, Halim Xudoynazarov “Shajarayi turk” va uning o‘rganilishi”, Qayum Karimovning “Abulg‘ozining tilga oid ba‘zi qaydlari” va boshqa adabiyotlar o‘rganib chiqildi va maqola uchun ma’lumotlar olindi.

Tadqiqot metodologiyasi

“Shajarayi turk” asarining o‘rganilishini tadqiq qilishda tadqiq qilinayotgan materiallarning ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda o‘rni bilan tarixiy-qiyosiy, ilmiy-tavsifiy, uslubiy hamda etimologik tahlil usullariga ham murojaat qilindi.

Ba‘zi muammolarni o‘rganishda umumturkiyshunoslik va xorijiy tillar tilshunosligida erishilgan ilmiy-nazariy yutuqlarga ham murojaat qilindi.

Tahlil va natijalar

Abulg‘ozining “Shajarayi turk” asari xususida ilmiy izlanishlar olib borgan olimlardan Munis va Ogahiyning “Firdavs ul-iqbol”⁵ asarida, S.P. Tolstov “Qadimgi Xorazm madaniyatini izlab”⁶ nomli kitobida, Y.G‘. G‘ulomov “Xorazmning sug‘orilish tarixi”⁷, Bayoniy esa “Shajarayi Xorazmshohiy” kitobida nihoyatda yaxshi fikrlar bildirganlar.

Abulg‘ozining asarlari Sharq tarixchi va olimlarinigina emas, balki rus va boshqa chet el olimlarining ham diqqat e’tiborini o‘ziga tortgan. Jumladan, rus tarixiy adabiyotlarida xorijiy tillardan tarjima qilingan asarlar qatoriga 1770-yildan “Shajarayi turk” asari ham qo‘shildi. Muallifning “Shajarayi turk” asari 1825-yilda Qozonda Rumyansev, 1854-yilda G.S. Sablukov, 1871-yilda P.I. Demizonlar tomonidan bir necha marotaba rus tilida nashr etildi. “Shajarayi turk”ning rus tiliga tarjimasini Rossiya oliy o‘quv yurtlarida Sharq xalqlari tarixi va tilini o‘qitish ishiga ham ijobiy ta’sir etdi. Masalan, Qozon Davlat dorilfununining professori I.N. Berezin

³ Абулғозий. Шажараи турк. – Т.: Чўлпон, 1992. – Б.11.

⁴ O‘sha asar. – Б.11

⁵ Шермухаммад Мунис. Муҳаммадризо Огаҳий. Фирдавс ул-иқбол. – Т., 2010. – 382 б.

⁶ Толстов С.П. Қадимги Хоразм маданиятини излаб. – Т., 1964. – 437 б.

⁷ Ғуломов Я.Ғ. Хоразмнинг суғорилиш тарихи. – Т., 1959. – 323 б.

turkiy xalqlar tarixini o‘qitishda Abulg‘ozining asarlariga ham tayangan: “Turk xrestomatiyasi” nomli kitobi va dorilfunun talabalariga o‘qigan ma’ruzalarida “Shajarayi turk” tayanch manbayi bo‘lib xizmat qilganligini olimning o‘zi ta’kidlaydi.

Shuningdek, P.P. Ivanov va A.K. Borovkovlar “XVI–XIX asrlar turkman tarixining manbalari haqida mulohazalar” nomli asarida, B.V. Lunin “O‘rta Osiyo tarixidan ocherklar”⁸ risolasida, M.I. Yo‘ldoshev “Xiva xonligida yer egaligi va davlat tuzilishi”⁹ asarida, B.V. Bartold “Madaniy hayot tarixi”, Q. Munirov “Munis, Ogahiy va Bayoniyning tarixiy asarlari”, B.A. Ahmedov “Ko‘chmanchi o‘zbeklar davlati”¹⁰ kabi asarlarida ham Abulg‘ozi Bahodirxonning ijodiga yuqori baho berganlar.

XVII asrda yashab ijod qilgan Abulg‘oziy Bahodirxon Xorazm saltanatida o‘z sulolasining shon-u shavkatini saqlash yo‘lida tinimsiz kurash olib borgan toj sohibi bo‘lish bilan birga Sharq xalqlari tarixi, madaniyati, tili va adabiyotining o‘tkir bilimdoni, ilm-fanga chuqur e‘tiqod qo‘ygan, o‘z ona tilining sofligi uchun tolmas kurashchi, nodir me‘moriy yodgorliklarning yuzaga kelishida bevosita homiylik qilgan ma’rifatparvar davlat arbobi hamdir. U qoloqlashib qolgan Xorazmni ham iqtisodiy, ham madaniy tomondan yuqori ko‘tarishga intilgan siymo. Uning o‘zaro ichki va tashqi urushlarga xotima berish yuzasidan olib borgan oqilona siyosati va tadbirlari tarixda xayrli ishlardan biri sifatida tilga olib kelinadi.

Abulg‘oziy Bahodirxon nomi ijodkor-olim sifatida XVII asr madaniy hayotida alohida mavqega ega. Allomaning asarlari Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik institutining qo‘lyozmalar fondida inv.№7668 (“Shajarayi turk”), inv. №1223 (“Shajarayi tarokima”), inv. №4017 (“Manofe’ ul-inson”) raqamlari ostida saqlanmoqda.

“Shajarayi turk” asari muallifning vafoti munosabati bilan to‘la yozilib, tugallanmay qoladi. Abulg‘oziyxonning vafotidan so‘ng uning o‘g‘li Anushaxon topshirig‘i bilan urganchlik ziyoli olimlardan biri Mahmud ibn Muhammad Urganchiy asarning yozilmay qolgan 21 sahifasini nihoyasiga yetkazadi. Bu to‘g‘rida asarning o‘zida quyidagicha ma’lumot keltiriladi: “Ma’lum bo‘lsinkim, Abulg‘oziyxonni jannat makon bu kitobni tasnif qilib yarmiga yetkanda xasta bo‘ldilar. Ul vaqtda o‘g‘ullarig‘a vasiyat qilib tururlar kim, bu kitobni notamom qo‘ymang, itmomig‘a sa‘yi qiling. Ul sababdin Abul Muzaffar val Mansur Anushaxon ibn Abulg‘oziyxon marhum va mag‘furat bu bandai bebizoat va kaminai beistito‘atki Mahmudiy ibn Mullo Muhammad Zamon Urganchiy bo‘lg‘ayman, bu kitobni itmomga yetkur, deb hukm qildilar. Agarchi banda bu amrni mushkulga loyiq va sazavor ermas erdim, andog‘ ham bo‘lsa, bu hodisa

⁸ Лунин Б.В. Очерки по истории Средней Азии. – М., 1958.

⁹ Йўлдошев М.И. Хива хонлигида ер эгаллиги ва давлат тузилиши. – Т., 1959. – Б. 81.

¹⁰ Аҳмедов Б. Кўчманчи ўзбеклар давлати.

nabavatki, al-ma’zurun turur, aning mazmunig’a amal qilib bu shahanshohi oliy jox hukmi birlan bilganimga loyiq bu kitobning itmomga tavajjux qildim”¹¹.

“Shajarayi turk” Abulg’oziy Baxodirxon ijodidagina emas, balki XVI–XVII asr o‘zbek madaniyati tarixida ham alohida o‘rin tutgan memuar asardir. Zero, asarni bir qator tarixchilar, tilshunoslar, adabiyotshunoslar Zahiriddin Muhammad Boburning memuar asari “Boburnoma” qatoriga qo‘yishlari ham besabab emas. Vengriyalik sharqshunos olim Herman Vamberti Abulg’oziyning ilmiy salohiyati va yuksak iste’dodiga baho berib shunday yozgan edi. “Abulg’oziy Bahodirxonning ko‘pgina ishlari Boburni xotirga tushiradi... Jahon uning “Shajarayi turk” asari uchun undan minnatdordir”¹².

Abulg’oziyxonning asarlarini adabiyotshunoslik va tilshunoslik nuqtayi nazaridan o‘rganish 1960-yillar arafasida boshlandi. 1957-yilning iyun oyida Toshkentda bo‘lib o‘tgan Butunittifoq sharqshunoslarining birinchi ilmiy-nazariy anjumanida “Xivalik Abulg’oziyxon asarlari – o‘zbek adabiyoti va tilining yodgorligi sifatida” degan mavzuda ma’ruza qilindi.

Adabiyotshunos Olim Sharafidinov tomonidan Vatan urushigacha tayyorlanib nashrga topshirilgan “O‘zbek adabiyoti tarixi xrestomatiyasi” (kitob 1945-yilda nashr etilgan)ning ikkinchi jildida “Shajarayi turk” asari haqida qisqacha ma’lumot beriladi. Asardan ayrim namunalar keltiriladi. Abulg’oziyxon to‘g‘risida quyidagi ma’lumot qayd etiladi: “Abulg’oziy Baxodirxon binni Arab Muhammad o‘zbek xonlari ichida Boburdan keyingi muhim shaxsdir. Uning madaniyat tarixida qilgan ishlari ulug‘”¹³.

Adabiyotshunos Halim Xudoynazarov Abulg’oziy Bahodirxonning adib sifatidagi faoliyati xususida tadqiqot ishlarini olib bordi. Bu sohada nomzodlik ishini himoya qildi. Ishning mazmuni risola tarzida chop etildi. Uning 1993-yilda “Shajarayi turk” va uning o‘rganilishi”, 1994-yilda esa “Abulg’oziy Bahodirxon tarixchi va adib” nomli risolalari bosmadan chiqdi. Muallifning birinchi risolasida “Shajarayi turk” asarining o‘rganilish tarixi haqida qisqacha ma’lumot berilib, asar yaratilgan davrdagi tarixiy-madaniy muhit, asardagi tarixiy voqyealar tasviri va asarning badiiy xususiyatlari hamda “Shajarayi turk”ning badiiy uslubi singari masalalar tadqiq etilgan. Uning ikkinchi kitobida esa Abulg’oziyxonning olim sifatida faoliyatiga baho beriladi.

Abulg’oziyxon nafaqat adib va tarixchi, balki yetuk tilshunos ham bo‘lgan. U arab, fors, xitoy, mo‘g‘ul tillarini yaxshi bilgan. Jumladan, tarixiy asarlarida turli toponimlar,

¹¹ Абулғозий. Шажараи турк. – Т.: Чўлпон, 1992. – Б.6.

¹² Вамбери Х. А. История Бухары или Маварауннахра. Том 1. – Москва, 1994. – 115 б.

¹³ Ўзбек адабиёти хрестоматияси. II том. – Тошкент. – Б. 45–53.

antroponimlar, gidronimlar, etnonimlar etimologiyasi haqida soʻz yuritib, ularning turli tillardagi nomlanishini ham qayd etadi.

Abulgʻoziy Bahodirxonning tilshunos olim sifatidagi faoliyati haqida oʻzbek tilshunosligida ayrim kuzatishlar olib borilgan. Shunday ishlardan biri Qayum Karimovning “Abulgʻoziyning tilga oid baʼzi qaydlari” nomli maqolasidir¹⁴. Olim ushbu maqolada Abulgʻoziyxonning tarixiy asarlarida uchrovchi ayrim soʻz va atamalarga bergan izohi va shu izohlar asosida tilshunoslikning fonetika, leksikologiya va morfologiya sohasidagi qarashlari haqida bahs yuritadi. Qayum Karimov Abulgʻoziyxon izohlagan soʻz va atamalarni Mahmud Qoshgʻariyning “Devonu lugʻotit turk” asari bilan qiyoslab tadqiq etadi. Bu esa Abulgʻoziyxon tomonidan tasniflangan soʻz va atamalarning fonetik va morfologik tarkibida qanday oʻzgarishlar yuz bergani haqida muhim xulosalar chiqarishga asos beradi. Olim maqola soʻnggida quyidagicha xulosaga keladi: “Uning (Abulgʻoziyxonning) lingvistik va leksik-semantik qaydlarining barchasini ham toʻgʻri deb boʻlmaydi: baʼzi soxta etimologiyaga asoslangan, grammatik jihatdan notoʻgʻri izohlar ham mavjud. Lekin bulardan qatʼi nazar bir qator tahlil va izohlari leksikologiya va morfologiya hamda fonetika tarixi uchun qimmatli material boʻla oladi”¹⁵.

Professor Abduhamid Nurmonovning “Oʻzbek tilshunosligi tarixi” nomli oʻquv qoʻllanmasida ham Abulgʻoziyxonning lisoniy qarashlariga alohida oʻrin berilgan. Olim Abulgʻoziy Bahodirxonning soʻzlar etimologiyasi haqidagi qaydlari haqida toʻxtaladi. Shuningdek, Abulgʻoziyxonning koʻp tilni biluvchi olim ekanligini taʼkidlab, xonliklar davri oʻzbek tilshunosligida “Shajarayi turk” asari muhim oʻrin tutishini eʼtirof etadi.

Koʻrinadiki, Abulgʻoziy Bahodirxonning tarixiy va adabiy manba sifatida olimlar tomonidan eʼtirof etilgan va yetarlicha tadqiq qilingan ikki asarida uchrovchi tilshunoslikka oid maʼlumotlarni alohida tadqiq etish ehtiyoji bor. Shuningdek, bu asarlarda chogʻishtirma tilshunoslik uchun ham muhim maʼlumotlar mavjud boʻlib, Abulgʻoziyxonning bu sohadagi ilmiy qarashlari hali yetarlicha tadqiq etilganicha yoʻq.

1938-yilda yaratilgan “XVI–XIX asrlar turkman tarixining manbalari haqida munozaralar” hamda 1958-yilda nashr etilgan “Oʻrta Osiyo tarixidan ocherklar” nomli kitoblar Abulgʻozining tarixchilik faoliyati toʻgʻrisida ham bahs yuritgan asarlardandir. “Abulgʻozining asarlari yana shuning uchun ham muhimki, mazkur muallifdan ilgari bunday asarlar

¹⁴ Каримов Қ. Абулвотийнинг тилга оид баъзи қайдлари // Ўзбек тили ва адабиёти. – № 2. – 1987. – Б. 57.

¹⁵ Каримов Қ. Абулвотийнинг тилга оид баъзи қайдлари // Ўзбек тили ва адабиёти. № 2. 1987. – Б. 53–57.

yaratilmagan edi, shuningdek ular vujudga kelgan va keyingi XVIII–XIX asrlar uchun ham xarakterli bo‘lib qolavergan Xiva – turkman munosabatlarini va turkmanlarning Buxoro na Eron bilan o‘zaro aloqalarini tushunish uchun juda boy material beradi”¹⁶.

“Abulg‘ozi Bahodirxon o‘zining muarrixligi bilan mo‘g‘ul, turk tarixchilari orasida shuhrat qozongan va shu bilan bir vaqtda Xiva hukmroni (1643–1663) bo‘lib, uning asarlari Rossiya va chet el tillarida ham tarjima qilingandir”, – deb yozadi olim A. Semenov. Ayniqsa, O‘zbekiston, Turkmaniston, Tojikiston xalqlari tarixini yorituvchi tarixshunoslar Abulg‘oziy asarlariga tayanch manbayi sifatida murojaat qilganlar¹⁷.

Abulg‘ozi Bahodirxonning faoliyati va tarixiy merosi K. Yusupov tomonidan alohida ilmiy tadqiqot obyekti qilib olingan. U 1950-yilda “XVII asrning birinchi yarmida Xiva xonligi va Abulg‘ozi” mavzusida nomzodlik ishini yozib, himoya qildi.

Akademik M.I. Yo‘ldoshev Xorazmdagi urug‘larning tarkibi va tuzilishini o‘rganishda Abulg‘ozixonning tadbirkorligini bayon etib: “Abulg‘ozixon tomonidan ko‘rilgan tadbirlar to‘g‘risida Shermuhammad Munis asarida keltirilgan ma’lumotlar ham urug‘larning tarkibi va tuzilishini o‘rganish uchun diqqatga sazovordir” – degan edi.

XX asrning dastlabki yillaridan boshlab Abulg‘ozi asarlari tilshunos olimlarni ham qiziqtirib kelmoqda. Bir qancha atoqli turkshunoslar o‘zbek adabiy tili tarixiga bag‘ishlangan ilmiy-nazariy ishlarida Abulg‘ozi asarlaridan unumli foydalanganlar.

A.M. Shcherbakning 1959-yilda Moskvadagi Sharq adabiyoti nashriyotida “O‘g‘uznoma va muhabbatnoma” nomli kitobi bosilib chiqadi. Bu kitob qadimgi uyg‘ur va eski o‘zbek yozuvlari yodgorliklariga bag‘ishlangan bo‘lib, unda O‘g‘uznoma munosabati bilan Abulg‘ozining “Shajarayi turk” asariga ham anchagina o‘rin ajratilgan. Bu ikki asar tadqiqotchi tomonidan taqqoslanadi va ulardan ilmiy-nazariy xulosalar chiqariladi. A.M. Shcherbak O‘g‘uzxonning afsonaviy tarixini yorituvchi qo‘lyozmalarning turli xil variantlarni bir-biriga qiyoslab ko‘rib, shular orasidagi eng ko‘p tarqalgani, ahamiyatlisi va qadimgisi Abulg‘ozining “Shajarayi turk”da keltirilgan varianti, degan xulosaga keladi. U uyg‘ur varianti bilan “Shajarayi turk”dagi ayrim detallarni, ya’ni yoy va oltin o‘qlarni qo‘llash o‘rinlarini qiyoslash orqali ham Abulg‘ozining qo‘lida bizgacha yetib kelmagan “O‘g‘uznoma”ning qadimiyroq nusxasi bo‘lgan, deb hukm chiqaradi. Ba’zi bir tarixchilarning Abulg‘ozixon O‘g‘uzxon haqidagi dalillarni Rashididdinning “Jome at-tavorix” asaridan olgan degan bir tomonlama fikrlariga qarshi chiqib, olim bunday deb yozadi: “Umuman, Abulg‘ozining qo‘lida O‘g‘uz haqida bizgacha yetib kelmagan ishonchli, qadimiy nusxaning bo‘lishi haqiqatdir... Rashididdinning “Jome at-

¹⁶Иванов П.П. Очерки по истории Средней Азии. – М., 1958. – Б. 31.

¹⁷ Худойназаров Х. «Шажараи турк» ва унинг ўрганилиши. –Т., 1993. – Б. 8.

tavorix”idan o‘zlashtirilgan bir qancha faktlarni Abulg‘ozi Eronda bo‘lgan vaqtida boshqa fors yozuvchilarining tarixiy xronikalaridan ham o‘qib o‘rgangan. Darvoqe, Rizo Nurning “Abulg‘ozi O‘g‘uz haqidagi afsonani butunicha Rashiddindan o‘zlashtirgan” degan asosli emas. Abulg‘ozining O‘g‘uz haqidagi bayoniga va umuman “Shajarayi turk”ka til nuqtayi nazaridan turli xil belgilarning aralash ishlatilishi xarakterli xususiyatdir. G‘arbiy va janubiy til qatlamlarining mavjudligi hamda muallifning ijtimoiy kelib chiqishi uning Xiva shevasiga yaqinligidan dalolat beradi. “O‘g‘uznoma va muhabbatnoma” nomli kitobda “O‘g‘uznoma variantlari”, “O‘g‘uznomaning mazmuni haqida”, “Afsonaning tili va yozilgan joyi”, “Afsonaning tili va qadimgi o‘zbek qarluq-uyg‘ur tillarining o‘zaro aloqadorlik muammosi” nomli bo‘limlarda ham Abulg‘ozining “Shajarayi turk” asari tiliga oid qimmatli mulohazalar bayon etilgan.

40-yillarda “Shajarayi turk”ni o‘rganishga kirishgan, “O‘zbek adabiyoti tarixi xrestomatiyasi”ni urushgacha tayyorlab nashriyotga topshirgan adabiyotshunos Olim Sharofiddinov (urushda halok bo‘lgan) 1945-yilda nashr etilgan “O‘zbek adabiyoti tarixi xrestomatiyasi”ning ikkinchi kitobida “Shajarayi turk” kitobi haqida qisqacha ma’lumot va undan ayrim namunalar berib: “Abdulg‘ozi Bahodirxon binni Arabmuhammad o‘zbek xonlari ichida Boburdan keyingi muhim shaxsdir. Uning madaniyat tarixida qilgan ishlari ulug‘”¹⁸, – deb adibga juda to‘g‘ri baho beradi.

Xulosa

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, Abdulg‘ozi Bahodirxonning ijodi bir qancha olimlar tomonidan o‘rganilgan va o‘rganilmoqda. Ammo “Shajarayi turk” asari lingvistik jihatdan hali ham keng ko‘lamda va atroflicha to‘plangan va ularning lisoniy xususiyatlari batafsil tahlil qilingan deya olmaymiz. Shu sababdan “Shajarayi turk” asaridagi etnonimlarning lisoniy xususiyatlarini o‘rganish o‘zbek etnonimiyasi sohasining dolzarb muammolaridan biri bo‘la oladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Абулғозий. Шажараи турк. – Т.: Чўлпон, 1992. – 190 б.
2. Шермухаммад Мунис. Муҳаммадризо Огахий. Фирдавс ул-иқбол. – Т., 2010. – 382 б.
3. Толстов С.П. Қадимги Хоразм маданиятини излаб. – Т., 1964. – 437 б.
4. Фуломов Я.Ф. Хоразмнинг суғорилиш тарихи. – Т., 1959. – 323 б.
5. Йўлдошев М.И. Хива хонлигида ер эгалиги ва давлат тузилиши. – Т., 1959. – Б. 81.
6. Аҳмедов Б. Кўчманчи ўзбеклар давлати.

¹⁸ Ўзбек адабиёти тарихи. I жилд. – Т., 1988. – Б. 531.

7. Ўзбек адабиёти хрестоматияси. II том. – Тошкент. – Б. 45–53.
8. Каримов Қ. Абулвотийнинг тилга оид баъзи қайдлари // Ўзбек тили ва адабиёти. – № 2. – 1987. – Б. 57.
9. Худойназаров Ҳ. «Шажараи турк» ва унинг ўрганилиши. – Т., 1993. – Б. 8.
10. Ўзбек адабиёти тарихи. I жилд. – Т., 1988. – Б. 531.